

Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar  
2024 yil yanvar-mart

	<i>Mlrd so'm</i>	<i>2023 yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot		
Sanoat mahsuloti		
Iste'mol tovarlari		
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari	3 730,5	103,5
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar		
Qurilish ishlari		
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)		
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi.-km)		
Chakana savdo tovar aylanmasi		
Xizmatlar, jami		
Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH doll.) <sup>1)</sup>		
Eksport		
Import		
Saldo (+,-)		

\* Ishlab chiqarish

### III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI



#### 2025- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

2025- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiy hajmi 3 730,5 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning shu davriga nisbatan 3,5 % ga o‘tdi. Jumladan, dehqonchilik va chorvachilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 3 538,1 mlrd so‘mni (o‘sish sur‘ati 103,5 %), ovchilik sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar 0,1 mlrd so‘mni (100,9 %), o‘rmon xo‘jaligida 93,3 mlrd so‘mni (103,3 %), baliqchilik xo‘jaligida 99,1 mlrd so‘mni (100,5 %) tashkil qildi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lari hajmining o‘sishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada ortishi bilan bog‘liqdir.

#### Viloyatda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi (yanvar-mart, mlrd so‘m)

	2023- yil	2024- yil	2025- yil
<b>Jami</b>	<b>2 816,6</b>	<b>3 166,5</b>	<b>3 730,5</b>
shu jumladan:			
Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar	2 676,0	3 008,9	3 538,1
O‘rmon xo‘jaligi	75,6	84,0	93,3
Baliqchilik xo‘jaligi	65,0	73,6	99,1

2025- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil qildi.

## Viloyatda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘shish sur‘atlari



**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Ovchilik xo‘jaligi** — ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

**O‘rmon xo‘jaligi** – faoliyat turi o‘rmon resurslarini takror ishlab chiqarish va o‘rmon resurslaridan foydalanish, xususan o‘rmonchilik, o‘rmonzorlarni barpo etish va yog‘ochni qayta ishlash tarmoqlari uchun binokorlik dumaloq yog‘ochlarini yetishtirish, shuningdek, yovvoyi holda o‘sovchi o‘rmon mahsulotlarini yig‘ish bilan bog‘liq bo‘lgan soha.

**Baliqchilik xo‘jaligi** – baliq ovlash va suv bioresurslarini, akvakulturani saqlash, suv bioresurslaridan olinadigan baliq va boshqa mahsulotlarni yetishtirish va sotish bo‘yicha faoliyat turi.

## Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi




**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

**O‘rmon xo‘jaligi**


**Baliqchilik xo‘jaligi**

2025- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 94,8 foizi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 2,7 foizi o‘rmon xo‘jaligi va 2,5 foizi – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik  
xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi,  
mlrd so‘m, o‘shish % da**



**Viloyat kesimida qishloq, o‘rmon va  
baliqchilik xo‘jaligi mahsulot  
(xizmat)larining yuqori foiz ulushiga  
ega tumanlar**



## 2025- yilning yanvar-mart oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


**Dehqonchilik.** 2025- yilning yanvar-martida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 102,4 mlrd so‘mni yoki 2024- yilning shu davriga nisbatan o‘shir sur‘ati 103,9 % ni, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida ulushi 2,9 % ni tashkil qildi.

**Hosilni yig‘ib olish.** Hisobot davrida barcha toifadagi xo‘jaliklarda 1 013,0 tonna (103,2 %) sabzavotlar yig‘ib olindi.

	Barcha toifadagi xo‘jaliklar		Shu jumladan:					
			Fermier xo‘jaliklari		Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o‘shir sur‘ati, % da	tonna	o‘shir sur‘ati, % da	tonna	o‘shir sur‘ati, % da	tonna	o‘shir sur‘ati, % da
Sabzavotlar-jami	1 013,0	103,2	64,0	101,6	581,0	103,8	368,0	102,5




### HUDUDLAR BO‘YICHA SABZAVOTLAR YETISHTIRISH



## 2025- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

### Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Savzavotlar yetishtirishning eng katta hajmi 0,6 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 57,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 0,06 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 6,3 foizi fermer xo'jaliklarida kuzatildi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilga nisbatan, fermer xo'jaliklarida 1,6 foiz, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 3,8 % ga o'sish kuzatildi.

**Chorvachilik.** Chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan tizimli qo'llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o'sishiga, ichki iste'mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to'yinishiga imkon yaratdi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida 3 383,9 mlrd so'mlik chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati 2024- yilning shu davriga nisbatan 101,3 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 97,1 % ni tashkil etdi.

2025- yilning 1-aprel holatiga viloyatdagi yirik shohli qoramollar bosh soni 957,9 mingtani (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,0 %), shu jumladan sigirlar bosh soni 276,3 mingtani (101,5 %), qo'y va echkilar bosh soni 2 485,9 mingtani (103,1 %), otlar bosh soni 32,5 mingtani (102,5 %) va parrandalar bosh soni 3 747,4 mingtani (99,0 %) tashkil qildi.

**2025- yil 1-aprel holatiga xo‘jalik toifalari bo‘yicha  
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Barcha toifadagi xo‘jaliklar		Shu jumladan:					
			Ferma xo‘jaliklari		Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	bosh soni	o‘sish sur‘ati, % da	bosh soni	o‘sish sur‘ati, % da	bosh soni	o‘sish sur‘ati, % da	bosh soni	o‘sish sur‘ati, % da
Yirik shoxli qoramollar	957 887	102,0	65 206	105,4	858 013	101,7	34 668	103,2
Sigirlar	276 338	101,5	21 368	102,5	244 040	101,3	10 930	106,0
Qo‘y va echkilar	2 485 869	103,1	445 992	99,2	1 604 680	101,0	435 197	116,8
Otlar	32 464	102,5	7 888	100,0	18 546	100,7	6 030	112,1
Parrandalar	3 747 375	99,0	315 054	104,6	1 713 647	101,5	1 718 674	95,7

Umumiy bosh soniga nisbatan dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 89,6 % ni, fermer xo‘jaliklarida 6,8 % ni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 88,3 va 7,7 % ni, qo‘ylar va echkilar 64,6 va 17,9 foizni, parrandalar 45,7 va 8,4 % ni tashkil qildi.



## HUDUDLAR BO'YICHA YIRIK SHOHLI QORAMOLLAR YETISHTIRISH


Viloyatda yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonining eng katta ulushi G'allaorol (18,3 %), Baxmal (17,8 %) va Zomin (12,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Eng kichik ulushlar esa, Jizzax shahri (1,3 %) va Do'stlik tumani (4,1 %) ga to'g'ri keldi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2024- yil yanvar-martga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Zafarobod (107,4 %) va Sh.Rashidov (106,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Soni (ming bosh)

Jizzax sh.	12,6
Do'stlik	39,1
Mirzacho'l	40,6
Zafarobod	42,3
Yangiobod	45,4
Arnasoy	49,5
Paxtakor	54,3
Zarbdor	55,3
Forish	68,8
Sh.Rashidov	88,5
Zomin	115,9
Baxmal	170,6
G'allaorol	175,1

### Qoramollar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 957,9 mingtaga yetdi.
- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2024- yil 1-aprelga nisbatan 18,3 mingtaga (2,0 %) ko'paydi.
- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 89,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilga nisbatan fermer xo'jaliklarida 5,4 foiz, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1,7 % ga o'sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO'YICHA SIGIRLAR YETISHTIRISH

Soni (ming bosh)


Sigirlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Baxmal tumaniga (17,4 %) to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush G'allaorol (15,4 %) va Zomin (14,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, sigirlarning umumiy bosh sonidagi eng kichik ulushlar Jizzax shahri (1,3 %) va Zafarobod tumani (4,4 %) ga to'g'ri keldi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2024 yilning yanvar-martiga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati Arnasoy tumani (111,3%) da qayd etildi.

Jizzax sh.	3,7
Mirzacho'l	10,6
Zafarobod	12,3
Do'stlik	12,4
Arnasoy	13,1
Paxtakor	15,2
Yangiobod	16,1
Zarbdor	16,9
Forish	19,9
Sh.Rashidov	25,4
Zomin	40,2
G'allaorol	42,6
Baxmal	48,0

### Sigirlar jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 276,3 mingtaga etdi.
- sigirlar bosh soni 2024- yil 1-aprelga nisbatan 4,2 mingtaga (1,5 %) ko'paydi.
- sigirlar bosh sonining 88,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilga nisbatan fermer xo'jaliklarida 2,5 % ga o'sish kuzatildi.




## HUDUDLAR BO‘YICHA QO‘YLAR VA ECHKILAR YETISHTIRISH

Qo‘y va echkilar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Forish tumaniga (35,8 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush G‘allaorol (13,6 %) va Baxmal (13,3 %) tumanlarida qayd etildi.


Shu bilan birga, qo‘y va echkilar umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Arnasoy (1,3 %) va Do‘stlik (1,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2024 yilning yanvar-martiga nisbatan eng yuqori o‘sish sur‘atlari Jizzax shahri (127,5 %) va Arnasoy tumanida (113,0 %) qayd etildi.

Soni (ming bosh)



### Qo‘ylar jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 485,9 mingtaga etdi.
- qo‘y va echkilar bosh soni 2024- yilning 1-apreliga nisbatan 75,8 mingtaga (3,1 %) ko‘paydi.
- qo‘y va echkilar bosh sonining 64,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 0,8 % ga kamayish kuzatildi.




## HUDUDLAR BO'YICHA PARRANDALAR YETISHTIRISH


Parrandalar umumiy bosh sonining eng katta ulushi G'allaorol tumaniga (35,4 %) to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulushga Sharof Rashidov (13,5 %) va Zomin (8,8 %) tumanlari ega bo'ldi.

Shu bilan birga, parrandalar umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Yangiobod (1,3 %) va Do'stlik (1,5 %) tumanlarida kuzatildi.

2024 yilning yanvar-martiga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati Sh.Rashidov tumanida (113,8 %) qayd etildi.



### Parrandalar jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- Parrandalarning umumiy bosh soni 3 747,4 mingtani tashkil qildi.

- Parrandalar bosh soni 2024- yil 1-aprelga nisbatan 38,1 mingtaga (1,0 %) kamaydi.

- Parrandalar bosh sonining 45,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida fermer xo'jaliklarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,6 % ga o'sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO'YICHA OTLAR YETISHTIRISH


Otlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Forish tumaniga (32,4 %) to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulushga Sharof Rashidov (14,2 %) va G'allaorol (10,8 %) tumanlari ega bo'ldi.

Shu bilan birga, otlarning umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Jizzax shahri (0,6 %) va Do'stlik tumanida (0,7 %) kuzatildi.

Kuzatilayotgan davrda, 2024 yil yanvar-martga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Arnasoy (148,2 %) va Do'stlik (115,8 %) tumanlarida qayd etildi.

	Soni (ming bosh)
Jizzax sh.	0,2
Do'stlik	0,2
Yangiobod	0,6
Arnasoy	0,6
Paxtakor	0,6
Mirzacho'l	1,7
Zafarobod	1,9
Zomin	2,4
Zarbdor	2,4
Baxmal	3,2
G'allaorol	3,5
Sh.Rashidov	4,6
Forish	10,5

### Otlar jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- Otlarning umumiy bosh soni 32,7 mingtaga etdi.
- Otlar bosh soni 2024- yil 1-aprelga nisbatan 788 boshga (2,5 %) ko'paydi.
- Otlar bosh sonining 57,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilga nisbatan fermer xo'jaliklarida 24,3 % ga o'sish kuzatildi.



## CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli ko'mak ko'rsatib kelinayotganligi chorva mollari va parrandalari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.



Joriy yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 3 383,9 mlrd so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,4 % ni tashkil qildi. Jami yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 97,1 % ni tashkil etdi.

**2024- yilning yanvar-iyun oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	Barcha toifadagi xo‘jaliklar		Shu jumladan:					
			Fermer xo‘jaliklari		Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o‘shish sur‘ati, % da	tonna	o‘shish sur‘ati, % da	tonna	o‘shish sur‘ati, % da	tonna	o‘shish sur‘ati, % da
Go‘sh, tirik vaznda, tonna	39 189,0	103,9	1 111,0	106,4	36 158,0	100,6	1 920,0	255,0
Sut, ming tonna	128 633,0	102,5	4 013,0	117,4	123 823,0	102,0	797,0	118,6
Tuxum, ming dona	63 488,0	101,1	4 467,0	100,3	29 278,0	90,0	29 743,0	115,3
Qorako‘l teri, dona	713	102,0	570	115,2	0,0	0,0	143	70,1
Ovlangan baliq tonna	3 357,0	100,4	252,0	82,1	430,0	100,5	2 675,0	102,5


2025- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vaznda 39,2 ming tonna go‘sh (2024- yilning yanvar-martiga nisbatan 103,9 % ga), 128,6 ming tonna sut (102,5 %), 63,5 mln. dona tuxum (101,1 %) va 713 dona qorako‘l teri (102,0 %) yetishtirilib, 3 357 tonna baliq (100,4 %) ovlandi.




## HUDUDLAR BO'YICHA GO'SHT YETISHTIRISH

Hajmi (ming tonna)

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi, % da



### Jami go'sht yetishtirishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning yanvar-mart oylarida xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, go'sht yetishtirishning eng katta hajmi 36,2 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 92,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

Kuzatilgan davrda, go'sht yetishtirishning eng kam hajmi 11,1 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 2,8 % i fermer xo'jaliklarida kuzatildi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2025- yil yanvar-martida fermer xo'jaliklarida 6,4 % ga, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,6 % ga, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 2,5 martaga o'sish kuzatildi.




## HUDUDLAR BO'YICHA SUT YETISHTIRISH

Hajmi (ming tonna)

Viloyatning umumiy hajmga nisbatan ulushi, % da



### Jami sut yetishtirishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning yanvar-mart oylarida xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, sut yetishtirishning eng katta hajmi 123,8 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 96,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

Ko'rsatib o'tilgan davrda, sut yetishtirishning eng kam hajmi 0,8 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 0,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.


2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2025- yil yanvar-martida fermer xo'jaliklarida 17,4 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,0 %, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 18,6 % ga o'sish kuzatildi.




## HUDUDLAR BO'YICHA TUXUM YETISHTIRISH

Hajmi (mln. dona)

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi, % da



### Jami tuxum yetishtirishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning yanvar-mart oylarida xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 29,7 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 46,1 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.

Ko'rsatib o'tilgan davrda, tuxum yetishtirishning eng kam hajmi 4,5 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 7,1 % i fermer xo'jalilarida kuzatildi.


2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2025- yil yanvar-martida fermer xo'jaliklarida 0,3 % ga, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 10,0 % ga kamayish, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 15,3 % ga o'sish kuzatildi.




## HUDUDLAR BO'YICHA BALIQ YETISHTIRISH

Hajmi (tonna)

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi, % da



### Jami baliq yetishtirishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning yanvar-mart oylarida baliq yetishtirishning eng katta hajmi 2 675 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 79,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2025- yil yanvar-martida fermer xo'jaliklarida 17,9 % ga kamayish, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,5 % ga, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 2,5 % ga o'sish kuzatildi.